

**ERKIN VOHIDOV- SHERIYATIDA MILLIY RUH VA INSONIY QADRIYATLARNING
BADIY IFODASI****Mahmatqulova Shirin****Alfraganus Universiteti, Filologiya fakulteti,
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishining 1-kurs talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.18933873>**

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri Erkin Vohidovning hayoti va ijodi, vatanparvarlik, insoniylik va ma‘naviy qadriyatlar tahlil qilinadi. SHoirning sheriyatida o‘zbek millatining dardini, inson kechinmalarini qalban his etish bosh ro‘l hisoblanadi va satrlarga muhrlash orqali xalq qalbidan joy olishining sir-asrorlari yoritib beriladi.

KALIT SO‘ZLAR: O‘zbekiston Qahramoni, vatanparvarlik, insoniylik, ma‘naviy qadriyatlar, inson kechinmalari, millat dardi, sir-asrorlari.

**IJODKOR NAFAS OLADIGAN HAVO-ADABIY MUHITDIR. BU HAVO TOZA, MUSAFFO
BO‘LMOG‘I KERAK.****“ERKIN VOHIDOV”.**

ERKIN VOHIDOV-O‘zbek xalq shoiri, publitsisti, dramaturgi, adabiy tarjimoni va atoqli olim 1936-yil 28-dekabr kuni Farg‘ona viloyatining Oltiariq tumanida o‘qituvchi oilasida tug‘ilgan. Toshkent Davlat universitetining “hozirgi O‘zbekiston Respublikasining Milliy Davlat universiteti” filologiya fakulteti 1955-1960 yillarda tahsil olgan. O‘qishni tamomlagach, turli Gazeta va jurnallar va tahririyatlarga ishlagan. SHoirning birinchi kitobi “Tong nafasi” 1961-yilda chop etildi. SHundan so‘ng shoirning bir qator she‘riy to‘plamlari chop etildi va xalq nazariga tushdi. Erkin Vohidov o‘z she‘rlarini yozish bilan birga bir qatorda taniqli ijodkorlar-Aleksandr Tvardovskiy, Johann Wolfgang von Goethe, Muhammad Iqbol, Rasul Hamzadov hamda Sergey Yesenin asarlarini yuksak mahora bilan o‘zbek tiliga tarjima qilgan. SHoirning Yesenin asarlaridan hamda Goethening “Faust” asarini qilgan tarjimalari e‘tirofqa loyiqdir. Vohidov she‘rlari chet“nemis, fransuz, rus, ingliz, urdu, hind, arab, fors” va qardosh turkiy tillarga tarjima qilingan. SHoir 1983-yil “HAMZA” nomidagi O‘zbekiston SSR Davlat mukofoti bilan taqdirlangan. 1987-yil “O‘zbekiston xalq shoiri” unvonini olgan. 1995-yil “DO‘STLIK” ordeni bilan mukofotlangan. 1999-yilda esa oliy darajadagi “O‘ZEKISTON QAHRAMONI” unvoniga sazovor bo‘lgan. Atoqli shoir, dramaturg, tarjimon va jamoat arbobi Erkin Vohidov uzoq yillik davom etgan kasallikdan 2016-yil 30-may kuni vafot etdi. Erkin Vohidov qalblarga o‘chmas iz qoldirdi va keying yosh avlodga bilim xazinalarini taqdim etib ketdi. O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti ISLOM ABDUG‘ANIYEVICH KARIMOV ning 1999-yil, 25-avgustdagi Farmoniga binoan Davlatimiz va xalqimiz oldidagi ulkan xizmatlari, O‘zbekiston Mustaqilligini mustahkamlash, islohotlarni chuqurlashtirish, mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayoti, milliy-madaniy sohalar rivojiga qo‘shgan salmoqli hissasi hamda qahramonona mehnatlari bir nechta yurtdoshlarimiz “OLTIN YULDUZ” medali bilan taqdirlanishgan. Ular orasida elimizning sevimli ijodkori ERKIN VOHIDOV ham borligi muxlislarining ko‘ngliga cheksiz quvonch baxsh etgan. O‘zbekistonda ko‘plab muassasa va joylarga shoir nomi berilgan. 2018-yilda Marg‘ilon shahrida Erkin Vohidov nomidagi maktab internati ochildi. 2019-yilda esa shaharda Erkin Vohidov memorial muzeyi ochildi. Vohidov hayoti va ijodi haqida ko‘plab kitob yozilgan, shu jumladan “Erkin Vohidov saboqlari”, “To quyosh sochgayki nur”, “So‘z sehri”, “O‘zbegining Erkin o‘zbeği” kitoblari nashr ettirilgan. SHoirning bir nechta she‘riga kuy bastalangan jumladan, Sherali Jo‘rayev tomonidan. 2020-yilning oktabrida

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tuzilganligining 75 yilligi munosabati bilan Vohidovning "INSON" she'ri asosida yozilgan "HUMAN" "inson" ashulasi arab, ingliz, italyan, qozoq, rus, tojik, turk va o'zbek tillarida taqdim etildi. Erkin Vohidov qalamiga mansub yana bir qasida "O'ZBEGIM" qasidasi shoirning mashhur qilgan she'rlaridan desak adashmagan bo'lamiz. Bu qasida 1960-yillarida xalq o'rtasida og'izdan tushmaydigan bo'lib qolgan edi deydi O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov. Shoir bilan o'tgan suxbatda yana shunday deydi Haqiqiy ijodkor o'z xalqining fidoyi va sodiq farzandi bo'ladi. Bu hamma zamonlarga, hamma xalqlarga xos udum Erkin Vohidov talay asarlari bunga misol bo'la oladi. Birgina "O'ZBEGIMNI" oling. O'z vaqtida shoirning boshiga ko'p savdolar solgan "peshonasini g'urra qilgan" bu qasidani o'zbekning gimni deyish mumkin. Ammo bu oddiy madhiya, faxriya, emas. Hajmi kichik asarda xalqimizning ming yillik tarixi, quvonch va iztiroblari g'oyat tabiiy, g'oyat tera naks etgan. Bir maktabda borganimda butun sinf bolalari "O'ZBEGIM" boshidan oxirigacha jo'r bo'lib yoddan o'qiganini ko'rganman va xalqimizning shunday shoiri borligidan faxrlanganman. deb ta'rif beradi. Darhaqiqat bu qaida har bir o'zbek farzandi yoddan biladi. O'zbekim qasidasining asosiy g'oyasi o'zbek xalqiga bo'lgan chuqur mehr va faxr tuygusini ifodalaydi. Shoir o'z she'rida Vatan, xalq va millat g'oyalarini yuksaltirib, ularga bo'lgan muhabatni tasvirlaydi. Vatan va millatning buyukligi ulug'lanadi. Bu she'r shoirning yuragi va vijdonidan chiqayotgan, uning xalqiga bo'lgan sadoqatini, g'ururini, faxrini va sevgisini o'zida aks ettiradi.

O'ZBEGIM QASIDASI

TARIXINGDIR MING ASRLAR

ICHRA PIN XON, O'ZBEGIM

SENGA TENGDOSH POMIRU

OQ SOCH TIYONSHON O'ZBEGIM

Erkin Vohidov tomonidan qoldirilgan bunday katta meros zamonlar oshsaham qalblarimizda mangu qoladi. Lekin bu qasidani yozib bo'lgandan so'ng shoir turli tahdidlar ostida ham qolgan. Erkin Vohidov shunday yozadi. Bu qasida uchun men juda ko'p so'roqlar berganman. Avvalo organdagilar bu millatchilik ruhidagi she'rning paydo bo'lishiga nima sabab bo'ldi, deb rosa siquvga olishgan. Nazarimda, bu O'zbekistondan ham tashqariga chiqib ketgandi "yuqori" ga -Moskvagacha yetib borgan .ideologlarni biroz cho'chitgan narsa she'rning xalq Ichida juda ommalashgani bo'lgan. "Nega she'rda sovet tuzumida o'zbek xalqining baxt -saodat topgani aks etmagan Leninning nomi yo'q Moskva tilga olinmagan. Partiya, oktabr inqilobi yo'q, shularni kiritib bering deyishgan menga .Men bunday deb yozolmasdim ham kiritolmadim ham. Eng yuqori dargohlarda ham shu talablar bo'lgan. Yana va'dalar ham bo'lganki, agar shu so'zlarni qo'shsam, kitobim juda katta "tiraj" ga chiqadi, mukofotlar bo'ladi ... ammo men bunday qilmadim. Ta'qiblardan bezganim uchun "FAUST" ning tarjimasini bahona qilib nashriyotdan ishdan kettim. Bunga muharrimiz ham rozi bo'ldi. Chunki u kishiga ham anchagina tazyiqlar bo'lgan. O'zbek she'riyatining hozirgi zamon buyuk shoirlaridan Erkin Vohidov 1968- yilda yozgan. O'zbekim nomli qasidasi uchun ,bir necha bor KGBgacha chaqirilib so'roq ham qilingan. Bularning barchasi biz xalqimiz uchun edi. Vohidov sotib ketsa bo'lardiku lekin u unday qilmadi va qilmaydiham. Nega chunki asl O'zbek farzandi. boshiga shuncha qiyinchiliklar kelgan bo'lsa ham faqat o'zbekim , vatanim deb yashadi va olg'a qadam bosdi. Shoir kutgan kunlar ham keldi. O'zbekiston Mustaqillikka erishdi. Bu uchun birinchi prezidentimiz I.A.Karovning hissalarini beqiyos. Shunday tinch ,osmoni musaffo diyorumizni qadrlab e'zozlab yashashimiz kerak. Bizlar uchun harakat qilgan insonlarni har doim yodimizda ,tilimizda ,diligimizda bo'lishi kerak. Xulosa

qilib aytganda Erkin Vohidov hech bir she'rinishunchaki yozmaydi, balki ularning har birida hayotning muhim masalalari ,yangi-yangi qirralarini kashf qiladi. SHoirning gavhardek serjiloijod mahsullari bundan keyin ham yoshlarimiz ,millatimiz ma'naviyatini yuksaltirish uchun o'zining munosib bahosiga ega muhim manbalardan biri sifatida boqiylikka muhrlanib qolaveradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Vohidov E. "Tarjimai hoim" maqolasi Toshkent. "Yoshlik" jurnali 10-son 1992
2. Vohidov E. "Qalb sadoqati" 5-jild Toshkent. G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 2018
3. I. Karimov. Asosiy vazifamiz-Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi yanada yuksaltirishdir. Toshkent "O'zbekiston" 2010
4. "O'zbekiston ovozi" gazetasi. 12-son 28-yanvar 2010 yil
5. I. Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch .Toshkent "Ma'naviyat" 2009.